

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdusalil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojoyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беғовот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	
HUDDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI .....	370
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
<b>Bekmurodov Navruz Ergashevich</b>	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
<b>Sattorov Shohruh</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
<b>Загидуллина Карина Рафаиловна</b>	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
<b>Viktoriya Kan</b>	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
<b>Nizomov Maxmud Minvarovich</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
<b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
<b>Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
<b>Alimov Bobirjon</b>	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
<b>Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva</b>	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
<b>Iskandarova Munisa Hasan qizi</b>	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
<b>Azimov Bobir Fattohevich</b>	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
<b>Safarmurodova Marjona To'raqulovna</b>	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
<b>Adizov Bobir Baxtiyorovich</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
<b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
<b>Kunnazarova Orazxan</b>	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
<b>Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi</b>	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
<b>Ibodullayev Dilshod Ibragimovich</b>	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
<b>Alimova Oydin Baxtiyorovna</b>	



STUDYING THE FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE APPROACHES TO REGIONAL EXPORT  
EFFICIENCY .....486  
**Qurbanov Feruz Baxramovich**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARI .....491  
**Xakimov Akbar Anvarovich**



# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARI

**Xakimov Akbar Anvarovich**

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [akbarjon\\_hakimov@mail.ru](mailto:akbarjon_hakimov@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari, ularning iqtisodiy ahamiyati hamda investitsiya muhitini takomillashtirish yo'nalishlari kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy kapital oqimini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati va investitsion risklarni kamaytirish masalalari yoritilgan. Kichik biznesni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli va samaradorligi ilmiy asosda baholanadi. Bundan tashqari, investitsiyalarni jalb etish jarayonida zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar hamda global bozor talablarining ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, iqtisodiy rivojlanish, kapital oqimi, davlat siyosati, investitsion mexanizmlar.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of mechanisms for attracting foreign investment into small business entities, their economic significance, and ways to improve the investment environment. It examines key factors influencing the inflow of foreign capital, government support policies, and approaches to reducing investment risks. The role and effectiveness of foreign investment in small business development are assessed on a scientific basis. In addition, the impact of modern economic trends and global market demands on investment attraction processes is analyzed. Based on the research findings, practical recommendations for small business entities are developed.

**Keywords:** small business, foreign investment, investment environment, economic development, capital flow, public policy, investment mechanisms.

**Аннотация.** В данной статье комплексно анализируются механизмы привлечения иностранных инвестиций в субъекты малого бизнеса, их экономическая значимость, а также направления совершенствования инвестиционной среды. Рассматриваются основные факторы, влияющие на увеличение притока иностранного капитала, меры государственной поддержки и вопросы снижения инвестиционных рисков. Оценивается роль и эффективность иностранных инвестиций в развитии малого бизнеса на научной основе. Кроме того, анализируется влияние современных экономических тенденций и требований глобального рынка на процессы привлечения инвестиций. По результатам исследования разработаны практические рекомендации для субъектов малого бизнеса.

**Ключевые слова:** малый бизнес, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, экономическое развитие, поток капитала, государственная политика, инвестиционные механизмы.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiyalar oqimiga, xususan, xorijiy investitsiyalarning samarali jalb etilishiga bog'liqdir. Kichik biznes subyektlari esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yanada yaxshilash hamda xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga keng jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlar investitsiyalar oqimini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining nazariy asoslari, ularning shakllanish omillari hamda samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, investitsiya jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilib, ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslarini o'rganishda, avvalo, investitsiya tushunchasi hamda unga oid nazariy qarashlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya resurslarni kelgusida iqtisodiy naf olish maqsadida joylashtirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Investitsiyalar foyda olish hamda ijtimoiy yoki iqtisodiy samaraga erishish maqsadida turli ishlab chiqarish, tijorat, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va boshqa sohalardagi dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladigan pul mablag'lari, mulk hamda intellektual boyliklar majmuasidan iboratdir.<sup>1</sup>

D. M. Rozenberg o'z tadqiqotlarida investitsiyalarni ko'paytirish, daromad olish va kapitalni oshirishga qaratilgan sarf-xarajatlar sifatida izohlaydi.<sup>2</sup> Tadqiqotchilardan V. Bocharov esa investitsiyalarni korxonalariga kiritiladigan va natijada foyda yoki ijtimoiy samaraga erishishga xizmat qiladigan boyliklarning barcha turlari sifatida tavsiflaydi.<sup>3</sup>

P. A. Samuelson investitsiyalarni kelgusida o'sish maqsadida bugungi iste'moldan voz kechish sifatida talqin etadi.<sup>4</sup> U. Sharp esa o'z tadqiqotlarida investitsiyalarni ikki turga ajratib, real investitsiyalarni moddiy aktivlarga (yer, uskuna, zavodlar), moliyaviy investitsiyalarni esa hujjatlashtirilgan moliyaviy majburiyatlar sifatida izohlaydi.<sup>5</sup> D. S. Lindsey va E. D. Dolan investitsiyaning mazmunini shakllanayotgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining oshishi hamda ishlab chiqarish resurslari taklifining kengayishi bilan bog'laydi.<sup>6</sup>

O'zbek olimlaridan Sh. Shodmonov va U. G'ofurov investitsiyalarni asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, shuningdek ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan sarflarning pul shaklidagi ifodasi sifatida ta'riflaydilar.<sup>7</sup> Ushbu yondashuv ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatli bo'lib, investitsiyaning iqtisodiy mazmunini tushunishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son li Qonunida<sup>8</sup> investitsiyalar investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchilik asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar sifatida ta'riflangan.

Umuman olganda, investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb etish ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Investitsiyaning mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish hamda unga oid nazariy qarashlarni tizimli ravishda tahlil qilish kichik biznesga samarali investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini o'rganishda bir qator ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning metodologik asosi iqtisodiy nazariya, investitsiya iqtisodiyoti hamda kichik biznesni rivojlantirishga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesga investitsiyalarni jalb etishga mos nazariyalardan biri Steven M. Fazzari, R. Glenn Hubbard va Bruce C. Petersen tomonidan ilgari surilgan moliyaviy cheklovlar (Pecking Order Theory) nazariyasidir. Mazkur model investitsiyalarning pul oqimiga sezgirliги moliyaviy cheklovlarning muhim ko'rsatkichi ekanligini asoslaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, tashqi moliyalashtirish manbalari ichki manbalarga nisbatan qimmatroq va murakkabroq hisoblanadi.

1 Синицин О. Инвестиционный анализ. Теория выбора // Инвестиции в России. № 1-2, 2007.

2 Розенберг Д.М. Инвестиции. – М.: ИНФРА, 2007, С-173.

3 Бочаров В. В. Инвестиционный менеджмент. СПб: Питер, 2000. С. 7.

4 Самуэльсон П.А. Экономика: пер. с англ. – М.: «БИНОМ», 1997. – С. 783.

5 Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с англ. – М.: «Инфра-М», 1997. – 1024 с.

6 Долан Э.Дж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. –СПб.,1994.-448 с.

7 Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2010. – 512 b.

8 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>.



Ferrando va Ruggieri<sup>9</sup> o'z tadqiqotlarida investitsion cheklovlarning samaradorlikka ta'siri ayniqsa kichik biznes subyektlarida yuqori ekanligini aniqlaganlar. Moliyaviy cheklovlar nazariyasiga muvofiq, eng maqbul moliyalashtirish yo'li sifatida, avvalo, ichki foydani qayta investitsiya qilish tavsiya etiladi. Keyingi bosqichlarda esa subsidiya va qarz mablag'laridan foydalanish mumkin.


Shu bilan birga, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va hisobotlarning ochiqqligini oshirish investorlarni jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning amaliy tahlili 1-jadvalda yanada batafsil yoritilgan.

1-jadval. Moliyaviy cheklovlar nazariyasi tahlili<sup>10</sup>

Bosqich	Moliyalashtirish manbai	Xususiyatlari	Afzalligi
1	Taqsimlanmagan foyda	Axborot asimmetriyasi muammosi mavjud emas	Moliyaviy mustaqillik saqlanadi
2	Bank kreditlari	Standart hujjatlar va garov ta'minoti talab etiladi	Ekviti moliyalashtirishga nisbatan tezroq jalb etiladi
3	Ekviti (angel investorlar, venchur kapital, IPO)	Nisbatan yuqori xarajatli va yuqori darajada shaffoflikni talab etadi	Katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi

Kichik biznesga investitsiyalarni jalb etish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi nazariyalardan yana biri institutsional nazariyadir. Mazkur nazariyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan olimlardan biri Douglass C. North hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, institutlar, ya'ni qonunlar, tartibga solish mexanizmlari va mulk huquqi tizimi iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini belgilaydi.

Kuchli va samarali institutlar tranzaksiya xarajatlarini hamda noaniqlik darajasini kamaytiradi, bu esa kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. C. Bjørnskov va N. J. Foss o'z tadqiqotlarida Douglass C. North nazariyasini empirik jihatdan asoslab, institutsional omillarning kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sirini isbotlaganlar. Ularning xulosalariga ko'ra, sifatli institutlar kichik biznes faoliyati samaradorligini taxminan 25–35 % ga oshirish bilan birga, ijtimoiy ishonch darajasini ham mustahkamlaydi. Shu bilan birga, tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi investitsiya oqimining ortishiga xizmat qiladi. Quyidagi chizmada institutsional mexanizmning asosiy tarkibiy elementlari tasvirlangan (1-chizma).



1-chizma. Kichik biznes uchun institutsional mexanizm<sup>11</sup>

9 Ferrando, A. and Ruggieri, A. 'Financial constraints and productivity: evidence from Euro area companies', International Journal of Finance and Economics, 2018. 23(3), 257–282.

10 Muallif ishlanmasi.

11 Muallif ishlanmasi.

Kichik biznesga xos bo'lgan nazariyalardan yana biri Jay B. Barney tomonidan ilgari surilgan resursga asoslangan nazariyadir. Mazkur nazariyaga ko'ra, biznes faoliyati VRIO mezonlariga, ya'ni Valuable (qimmatli), Rare (noyob), Imperfectly Imitable (nusxa ko'chirib bo'lmaydigan) va Organized (tashkillashtirilgan) omillarga asoslanadi.

Kichik biznes subyektlari aynan ushbu resurslardan strategik foydalanish orqali investorlarni jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Seitz va uning hamkor tadqiqotchilari ushbu nazariyani akseleratorlar faoliyati bilan bog'liq holda o'rganib, ularning kichik biznes subyektlariga qanday noyob resurslar taqdim etishini tahlil qilganlar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, akseleratorlar kichik tadbirkorlik subyektlarini qimmatli resurslar bilan ta'minlash orqali ularning barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mazkur nazariya kichik biznesga investitsiyalarni jalb etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.<sup>12</sup>

Kichik biznes subyektlari uchun VRIO mezonlari asosida shakllanadigan resurslar 2-jadvalda keltirilgan.

#### 2-jadval. Kichik biznes uchun Barneyning VRIO mezonlari bo'yicha resurslar<sup>13</sup>

VRIO bo'yicha resurs turi	Xususiyati	Qiziqish bildiradigan investorlar
Inson kapitali	Kompotensiya (noyob bilim, malaka, ko'nikma va tajriba)	Biznes-farishtalar Venchur kapitalistlar Strategik investorlar Banklar
Texnologiya	Patent mavjudligi (nusxa ko'chirib bo'lmaydi)	
Mijoz bazasi	Uzoq muddatli, sodiq	
Joylashuv	Raqobatchi kam	
Mahsulot va shaxsiy brend	Ishonch	
Sheriklik aloqalari	Tanishlar tarmog'ining kengligi	

Umuman olganda, kichik biznes subyektlari jadvalda keltirilgan xususiyatlarga ega bo'lgan noyob resurslarga ega bo'lsa, ularga yo'naltiriladigan investitsiya oqimi yanada ortadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga investitsiyalarni jalb etish manbalarining birlamchi va eng muhim shakli ichki moliyalashtirish hisoblanadi. Bu, asosan, taqsimlanmagan foydani qayta investitsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari, avvalo, ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishga intilishi lozim.

Amerikalik tadqiqotchi Cole o'z izlanishlarida kichik biznesning boshlang'ich bosqichida ichki mablag'lar, shuningdek, oila va do'stlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy resurslar muhim o'rin tutishini asoslab bergan.<sup>14</sup> OECDning 2024-yildagi "Financing SMEs and Entrepreneurs 2024" hisobotiga ko'ra, qariyb 50 ta davlatda o'tkazilgan so'rovlar natijasida kichik biznes subyektlarining 79 foizi kredit olishga ehtiyoj sezmagani bildirgan, bu esa ularning ichki moliyaviy resurslari yetarli ekanligi bilan izohlanadi. Ya'ni, ichki investitsiyalarning oshishi natijasida kredit va ekviti (ulushli) investitsiyalarga bo'lgan talab nisbatan kamayadi.<sup>15</sup>

Mutula va boshqa tadqiqotchilar kichik biznes kapital tuzilmasida "Pecking Order" nazariyasini empirik jihatdan sinab ko'rib, ichki moliyalashtirish ustunligini 2126 ta kichik biznes subyektlari bo'yicha shakllantirilgan panel ma'lumotlar asosida tasdiqlaganlar. Van der Sluis va Van Praag esa o'z tadqiqotlarida boshlang'ich kapital cheklovlari kichik biznes faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini qayd etganlar. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida ham korxonalarining o'z mablag'lari muhim ahamiyat kasb etadi, biroq biznesni kengaytirish va rivojlantirish uchun tashqi moliyalashtirish manbalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznesga investitsiyalarni jalb etishning muhim manbalaridan yana biri davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. Bunda turli davlat dasturlari doirasida grantlar, subsidiyalar hamda imtiyozli kreditlar ajratiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki davlat tomonidan jalb etilayotgan investitsion resurslar ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

OECDning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, davlat tomonidan taqdim etiladigan grantlar, kafolatlar va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari kichik biznesga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini o'rtacha 20–30 % ga oshiradi. Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlaridan biri sifatida

12 Seitz, N., Lehmann, E.E., & Haslanger, P. «A meta-analysis towards the effectiveness of startup accelerators». The Journal of Technology Transfer. 2024. p 4-8.

13 Muallif ishlanmasi.

14 Cole R. A. What do we know about the capital structure of privately held firms? // SSRN Electronic Journal. – 2010. – doi:10.2139/ssrn.1341619. – URL: [https://mp.ra.ub.uni-muenchen.de/24669/1/MPRA\\_paper\\_24669.pdf](https://mp.ra.ub.uni-muenchen.de/24669/1/MPRA_paper_24669.pdf).

15 OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: Strengthening resilience and financial health. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 168 p. [https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2024\\_fa521246-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2024_fa521246-en.html).



AQSHda 1953-yilda qabul qilingan kichik biznes to'g'risidagi qonun asosida tashkil etilgan SBA (Small Business Act) 7(a) kredit dasturini alohida ta'kidlash lozim.

Mazkur dastur AQSH Kichik biznesni boshqarish agentligining asosiy davlat kafillik mexanizmi bo'lib, kichik biznes subyektlariga uskunalar xaridi, ko'chmas mulk, aylanma mablag'lar va qayta moliyalashtirish uchun 50 ming AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha mablag' ajratishni nazarda tutadi. Kredit stavkalari 2,25–4,75 % oralig'ida bo'lib, 10-yildan 25-yilgacha bo'lgan muddatlarga beriladi. Har yili AQSHda 60 mingdan ortiq kichik biznes subyektlari ushbu dastur orqali moliyalashtiriladi, bu esa ularning rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SBA 7(a) dasturidan foydalangan kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritish ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'ladi. Xususan, Gallagher tomonidan Urban Institute uchun olib borilgan tadqiqotda ushbu dasturdan foydalangan korxonalarining 4-yil davomida faoliyatini davom ettirish ehtimoli yuqori ekani aniqlangan. Bu, asosan, davlat kafolati tufayli banklar tomonidan kredit ajratish jarayonida ishonch darajasining oshishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Hackney tomonidan olib borilgan tadqiqotda 2007–2009-yillardagi moliyaviy inqiroz davrida SBA 7(a) dasturining ahamiyati tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, ushbu dasturdan keng foydalanilgan hududlarda kichik biznes kreditlari hajmi 2,5 %, korxonalar soni 3,5 % va bandlik darajasi 3,7 % ga oshgani aniqlangan.

Umuman olganda, maqsadli davlat qo'llab-quvvatlashi, ayniqsa moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklangan sharoitlarda, kichik biznesni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi hamda investitsiya jarayonlarining faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes uchun muhim moliyalashtirish manbalaridan yana biri "biznes farishtalar" (angel investorlar) hisoblanadi. Biznes farishtasi — shaxsiy mablag'lari hisobidan yoki oilaviy hamda yaqin do'stlar tarmog'i orqali moliyalashtirishni amalga oshiradigan, shuningdek rasmiy angel tarmoqlarida (angel network) ishtirok etuvchi, yuqori sof aktivlarga ega investor sifatida tavsiflanadi.

Mazkur moliyalashtirish manbasining asosiy obyektlari, odatda, yangi tashkil etilgan startaplar yoki bozor salohiyati yuqori bo'lgan kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Investitsiya kiritishning asosiy modeli ko'pincha ulushli ishtirok etishga asoslanadi. Ushbu manba an'anaviy bank kreditlari va yirik venchur kapital o'rtasidagi moliyaviy bo'shliqni to'ldirishda muhim o'rin tutadi.

Kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada kuchaytirish uchun investitsiya muhitini liberallashtirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash hamda investorlar uchun shaffof axborot tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus grant va subsidiya dasturlarini kengaytirish, startaplar faoliyatini rivojlantiruvchi inkubatsiya markazlarini takomillashtirish zarur.

Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli platformalar orqali investorlar va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash kichik biznesga investitsiyalar oqimini kengaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, 598-son, Toshkent sh., 2019-yil 25-dekabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>.
2. Синицин О. Инвестиционный анализ. Теория выбора // Инвестиции в России. – 2007. – № 1–2.
3. Розенберг Д. М. Инвестиции. – М.: ИНФРА, 2007. – С. 173.
4. Бочаров В. В. Инвестиционный менеджмент. – СПб.: Питер, 2000. – С. 7.
5. Самуэльсон П. А. Экономика / пер. с англ. – М.: БИНОМ, 1997. – С. 783.
6. Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции / пер. с англ. – М.: Инфра-М, 1997. – 1024 с.
7. Долан Э. Дж., Линдсей Д. Е. Микроэкономика. – СПб., 1994. – 448 с.
8. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 512 b.
9. Ferrando A., Ruggieri A. Financial constraints and productivity: Evidence from Euro area companies // International Journal of Finance and Economics. – 2018. – Vol. 23, No. 3. – P. 257–282.
10. Bjørnskov C., Foss N. J. Institutions, entrepreneurship, and economic growth: What do we know and what do we still need to know? // Academy of Management Perspectives. – 2016. – Vol. 30, No. 3. – P. 292–315.
11. Seitz N., Lehmann E. E., Haslanger P. A meta-analysis towards the effectiveness of startup accelerators // The Journal of Technology Transfer. – 2024. – P. 4–8.
12. Cole R. A. What do we know about the capital structure of privately held firms? // SSRN Electronic Journal. – 2010. – DOI: 10.2139/ssrn.1341619. – URL: [https://mp.ra.ub.uni-muenchen.de/24669/1/MPRA\\_paper\\_24669.pdf](https://mp.ra.ub.uni-muenchen.de/24669/1/MPRA_paper_24669.pdf).

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)